

Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari uchun

QO‘LLANMA

Dars rejasi:

Mavzu: “Mehnatga oid munosabatlar tushunchasi. Yoshlar uchun imtiyozlar”

Fan: Davlat va huquq asoslari

Sinf: 11-sinf

Dars davomiyligi: 45 daqiqa

Dars maqsadi:

1. Mehnatga oid munosabatlarning Konstitutsiyaviy asoslari, mehnat qonunchiligi va yoshlar uchun imtiyozlarning ahamiyatini tushuntirish.
 2. Voyaga yetmaganlar va yoshlarning mehnat huquqlari, ularning mehnat munosabatlaridagi huquqiy maqomini ta’riflash.
 3. Mehnat qonunchiligini yoshlar uchun muvofiqlashtirish va korxonalarda yoshlar uchun berilgan imtiyozlarning samaradorligini baholash.
 4. Mehnat huquqi sohasidagi asosiy qonunlar va qoidalarni tushunish, yoshlar uchun qo‘srimcha imtiyozlar va ularni amalda ishlatishtirish.
-

Kutilayotgan natijalar:

1. O‘quvchilar mehnatga oid munosabatlarning Konstitutsiyaviy asoslarini va mehnat qonunchiligidagi asosiy tushunchalarni tushunib olishadi.
 2. Yoshlar va voyaga yetmaganlarning mehnat huquqlari, ularga beriladigan imtiyozlar haqida aniq tushunchalarga ega bo‘lishadi.
 3. O‘quvchilar nepotizm va uning mehnat huquqiga ta’sirini baholaydi.
 4. Mehnat qonunchiligiga oid keyslar yordamida amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi.
-

Metodlar:

- **Suhbat:** O‘quvchilar bilan mehnat huquqlari va yoshlar uchun imtiyozlar haqida faol suhbat olib borish.
 - **Keys-metod:** Keyslar va kazuslar yordamida amaliy vaziyatlarni hal qilish.
 - **Blits so‘rov:** O‘quvchilarning ma’lumotlarini tezkor tekshirish.
 - **Hikoyalar:** Mehnat qonunchiligiga oid amaliyot va yoshlarga beriladigan imtiyozlar haqida voqealar yoki hikoyalar.
-

Foydalanadigan materiallar:

- **Taqdimot:** Mehnat qonunchiligi, yoshlar uchun imtiyozlar, va nepotizmga oid slaydlar.
 - **Kartochkalar:** Keyslar va rolli o‘yinlar uchun vaziyatlar.
-

Dars qismlari:

1. Kirish (5 daqiqa)

- **O‘qituvchi:** Dars maqsadi va mavzusi bilan tanishtiradi.
 - “Bugungi darsda mehnatga oid munosabatlarning Konstitutsiyaviy asoslari, mehnat qonunchiligi, yoshlarga beriladigan imtiyozlar va nepotizm haqida o‘rganamiz.”
 - Savol: “Mehnat huquqlari uchun Konstitutsiyada qanday asoslar belgilangan?”

2. Mehnatga oid munosabatlarning Konstitutsiyaviy asoslari (10 daqiqa)

- **Ta’rif:**
 - “Mehnatga oid munosabatlar Konstitutsiyada belgilangan assosiy prinsiplarga asoslanadi. Konstitutsiyada shaxsning mehnat qilish, ish haqini olish hamda mehnat shartnomasining amalga oshirilishi haqida aniq belgilar mavjud.”
 - “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 42-moddasida har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishslash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘limgan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga egaligi belgilangan.”

- **Savol:** “Konstitutsiyada belgilangan mehnatga oid huquqlar yoshlar uchun qanday o‘rin tutadi deb o‘ylaysiz?”

3. Mehnat to‘g‘risidagi qonun hujjatlarining vazifalari (10 daqiqa)

- ## • Ta’rif:

- “Mehnat to‘g‘risidagi asosiy qonun hujjati – bu O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi hisoblanadi. Mehnat kodeksida mehnat qilishning qonuniy asoslari, xodimlarning huquqlarini himoya qilish, mehnat shartnomasi, ish vaqt, dam olish va mehnat shartlari belgilangan.”

- “Mehnat qonunchiligi xodimlarning asosiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan.”

- **Savol:** “Mehnat qonunlarining asosiy vazifalari qanday?”

- “Agar xodim mehnat shartlarini buzgan bo‘lsa, Sizningcha, ish beruvchi qanday choralar ko‘radi?”

4. Mehnat huquqining subyektlari va yoshlar uchun imtiyozlar (10 daqiqa)

- ### • Ta’rif:

- “Mehnat huquqi subyektlari – xodim va ish beruvchi, ularning o‘zaro munosabatlarini qonuniy shaklda belgilaydi.”

- “Voyaga yetmaganlarning mehnat qonunchiligidagi huquqlari: nat shartnomasini tuzish, qonunlarda belgilangan qulay ish vaqt va mehnat

a — Yoshlar bilan mehnat shartnomasi tuzishda ularning sog'ligi va xavfsizligini ta'minlaydigan shartlar nazarda tutiladi.

o — Xavfli, og'ir va zararli mehnat turlariga yoshlarni jalb qilish taqiqilanadi.

— “Mehnat kodeksida yoshlar uchun alohida kafolatlar belgilangan, jumladan 16 dan 18 yoshgacha bo‘lganlar uchun ish vaqtiga 36 soatdan, 15 dan 16 yoshgacha bo‘lganlar uchun esa haftasiga 24 soatdan oshmasligi lozim.

r — Muddatli harbiy xizmatni o'tagan va kontrakt bo'yicha o'qiyotgan ijtimoiy faol talabalarga kontrakt summasining 35 foizi to'lab beriladi. (<https://lex.uz/docs/899316>)

a — Shartnoma asosida o‘qiyotgan talabalarga ta’lim krediti beriladi.
(<https://lex.uz/docs/5586538>)

e — Yoshlar muammolari bilan ishslashning yangicha tizimi – “Yoshlar d>tari” ishga tushirilgan, (<https://lex.uz/docs/6051791>)

a — Nogironligi bo‘lgan yoshlarga o‘qish, yashash va transport xarajatlarini qoplash uchun BHMning 50 baravarigacha (16 mln 500 ming so‘m) miliqdorda subsidiva ajratiladi. (<https://lex.uz/docs/6076304>)

0

,

1

i

— Xorijdagi yosh vatandoshlarning vazirliklar, idoralar va tashkilotlarda ishlashi uchun shart-sharoit yaratiladi.

◦ **Savol:** “Yoshlar uchun mehnat qonunchiligidagi qanday imtiyozlar mavjud?”

5. Nepotizm va uning ta’siri (7 daqiqa)

- **Ta’rif:**

◦ "Nepotizm – bu yaqin qarindoshlar, tanishlar yoki do‘stlar bilan ishga olish amaliyoti. Bu holat mehnat munosabatlarda qonunlarga amal qilmaslik vaadolatsizlikka olib kelishi mumkin."

◦ "Nepotizmga qarshi kurashish uchun qonunlar va amaliy choralar zarur."

◦ **Savol:** "Nepotizm mehnat munosabatlariga qanday ta’sir ko‘rsatadi?"

◦ **Keys:** "Mehnat Taraqqiyot" davlat korxonasida rahbar xodimlar o‘z yaqin qarindoshlarini (o‘g‘il-qizlari, aka-uka va tanishlarini) ishga joylashtirish holatlari ko‘paygan. Bu holat boshqa xodimlar orasida norozilik keltirib chiqargan, shuningdek, ish natijadorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

◦ "Sizningcha, mazkur vaziyatda qanday choralar ko‘rilishi kerak?"

6. Blits so‘rov (5 daqiqa)

- **Savollar:**

1. "Mehnat huquqi subyektlari kimlar?"

2. "Voyaga yetmaganlarning mehnatdagi huquqlari qanday qonunlar bilan himoya qilinadi?"

3. "Yoshlar uchun mehnat qonunchiligidagi qanday maxsus imtiyozlar bor?"

4. "Nepotizm mehnat huquqiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?"

7. Yakuniy xulosa (3 daqiqa)

- **O‘qituvchi:**

◦ "Mehnat qonunchiligi mehnatga oid huquqiy asoslarini belgilaydi. Nepotizmga qarshi kurashish yoshlarning kelajakdagi mehnat faoliyatining samaradorligi uchun muhim hisoblanadi."

◦ "Har bir inson mehnat qilish huquqiga ega, va yoshlar uchun imtiyozlar va himoyalar davlat tomonidan ta’minlangan."
